# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
# TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
# QARORI

2022 - yil 24 - may 173-10-212-Q/22 Toshkent tuman hokimligi

## O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ko'p kvartirali uylarni boshqarish faoliyatini amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida” 2022-yil 3-yanvardagi 3-son qarorining ijrosini ta'minlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi PQ-5152-son qarori talablari asosida “Ko'p kvartirali uylarni boshqarish faoliyatini amalaga oshirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-yanvardagi 3-son qarorida belgilangan vazifalarni tumanda joriy etish bo'yicha hamda masalaga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida o'tkazilgan taqdimot yig'ilishining 2022-yil 21-martda tasdiqlangan 22-son Bayonida belgilangan talablar ijrosini ta'minlash yuzasidan.

## QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida o'tkazilgan taqdimot yig'ilishining 2022-yil 21-martda tasdiqlangan 22-son Bayonida belgilangan talablarni tegishligicha tumanda ijrosini ta'minlash asosiy vazifa etib belgilansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ko'p kvartirali uylarni boshqarish faoliyatini amalaga oshirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi 2022-yil 3-yanvardagi 3-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda tuman hokimining Qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosar (S.Mirsagatov) Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-yanvardagi 3-son qarori ko'p kvartirali uylarni boshqarish faoliyatini amalga oshirish qoidalariga rioya qilgan holda ishni tashkil etish;

-tumandagi mavjud uy-joy mulkdorlari shirkatlari ro'yxatini shakllantirib, o'rnatilgan tartibda boshqaruvchi tashkilotlarga o'tkazilishini;

-o'rnatilgan tartibda mulkdorlar va boshqaruvchilarga ko'p kvartirali uy-joylarga tutash yer uchastkalari chegaralarini va o'lchamlarini belgilagan holda ularga doimiy foydalanish huquqi kadastr hujjatlarini rasmiylashtirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish va ushbu talablarga qatiy rioya qilinishini ta'minlash, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan va tegishligicha qabul qilingan hujjatlarni tasdiqlash uchun Xalq deputatlari Toshkent tumani Kengashining navbatdagi sessiyasiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari S.Ergashevga:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi PQ-5152–son qarorining 10-bandi talablari asosida ko'p kvartirali uylarni boshqarish usuli shirkatlardan boshqaruvchi tashkilotlarga o'tgan uy-joylar uchun jalb qilingan kreditlarni muddatini, hokimlikning kafilligi asosida uch yilgacha uzaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni doimiy nazoratini olib borish topshirilsin.

4. Ushbu qarorning sifatli va o'z muddatida bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari S.Ergashevga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **O.Rustamov**